


**PESHKU TUMANI AXBOROT - KUTUBXONA MARKAZI
AXBOROT - BIBLIOGRAFIYA XIZMATI**

O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev tavalludining
(1940-2005) 85 yilligiga atab

**“SHUKUR XOLMIRZAYEV-O'ZBEK ADABIYOTIDA
PORLAGAN YULDUZ”**



ADABIYOTLAR TAVSIYA RO'YXATI

PESHKU-2025

Soʻz boshi: Zamonaviy oʻzbek nasrining zabardast vakillaridan biri Shukur Fayzullo oʻgʻli Xolmirzayev 1940-yil 24-martda Surxandaryo viloyati Boysun tumanida dunyoga keladi. Otasi asli Bulungʻurlik boʻlib, 1937-1938-yillarda Boysunga ketishga majbur boʻlgan. Shukur Boysundagi oʻrta maktabni tugatib, 1957-1962-yillarda ToshDUning filologiya fakultetida oʻqiydi. Shundan soʻng u Toshkentdagi bir qator nashriyot, gazeta va jurnallarda mehnat qiladi. Shukur Xolmirzayev buyuk aktyor Shukur Burxonov rahbarligida tashkil etilgan toʻgarakda Gamlet rolini oʻynagan. Ofeliya rolini oʻynagan Saida ismli qizga uylangan. Adib Shukur Burxonov haqida hujjatli esse, Matyoqub Qoʻshjonov haqida “U ustoz — men shogird” nomli hujjatli qissa yozgan.

Shukur Xolmirzayev oʻzbek hikoyachilik sanʼatining ustoz Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga koʻtargan yozuvchilardan biridir. Uning hikoya, qissa va romanlari tesha tegmagan voqealarga bagʻishlanganligi, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi ijodining oʻziga xosligi ayni paytda ijodiy jarayonning oʻziga xosligini belgilaydi. Ijodiy jarayon har bir yozuvchida oʻziga xos tarzda kechadi. Mustaqil uslubiga, individual ovozigaga ega ijodkor qanchalik koʻp boʻlsa, individual ijodiy jarayon ham shuncha rang-barang boʻladi. Shukur Xolmirzayev ijodi hozirgi zamon oʻzbek adabiyotining yorqin va mazmundor sahifalaridan birini tashkil etadi. Koʻp qirrali isteʼdod sohibi Shukur Xolmirzayev adabiyotning turli janrlarida rang-barang badiiy asarlar yaratib, oʻzbek adabiyoti xazinasini boyitgan. Adib oʻzining rang-barang hikoyalari, publisistik maqolalari, tarixiy esselari, realistik qissalari-yu ajoyib romanlari bilan hozirgi zamon adabiyotida munosib oʻrin egallaydi. Yozuvchi Shukur Xolmirzayev hozirgi oʻzbek adabiyotida oʻz ovozigaga, uslubiga ega boʻlgan ijodkorlardan hisoblanadi.

Yozuvchi Shukur Xolmirzayev hikoyachilik rivojiga oʻzining hikoyalari va qissalari bilan salmoqli hissa qoʻshgan. Atrofdagi roʻy berayotgan voqea-hodisalarga hikoyalari orqali hozirjavoblik bilan javob bera olgan. Sanʼatsiz, adabiyotsiz yashashni tasavvur etolmaydigan qahramonlar talqini Shukur Xolmirzayevning ijodida qayta-qayta koʻzga tashlanadi. Ushbu tavsiya roʻyxat keng kitobxonlar ommasiga moʻljallangan.

Xolmirzaev, Sh. Iyul, iyuldonlar : [Matn] : Qissalar va hikoyalari. -T.: “Ўзбекистон”, 1984. – 160 b.

Ёзувчи тўпламдаги хикоя ва қиссаларида тоғ болалари ҳаётдан хикоя қилади. Сурхон тоғларида яшовчи мард, танти, содда, сахий, покиза, маънавий эътиқодларида собит турадиган одамлар - асосан, чорвадорлар, овчилар, муаллимлар ва айникса, болалар дунёсини яхши ёритиб беради.

Xolmirzayev, Sh. Tanlangan asarlar : [Matn] : Roman. 3-jild. / Sh. Xolmirzayev. - T.: “Oʻzbekiston NMIU”, 2006. –512 b.

Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Shukur Holmirzaevning uch jildlik “Saylanma”sining uchinchi jildidan 1996 yilda yozilgan “Bandi burgut” hikoyasidan tortib hali siyohi qurimagan “Kuzda bahor havosi” nomli yangi hikoyasi oʻrin olgan. Yozuvchining 45 yillik ijodiy faoliyatida yaratgan hikoyalari oʻzbek nasrining chinakam durdonalari, oʻlmas maʼnaviy mulki boʻlib qoldi. Milliy adabiyotimizning haqiqiy fidoyisi boʻlmish taniqli adib adabiyotimizda oʻziga xos maktab yaratdi. Oʻzbek hikoyachiligini yangi pogʻonaga koʻtargan mohir yozuvchini kitobxonlar romannavis, dramatur, qissanavis, publisist, adabiyotshunos, qadimshunos sifatida ham yaxshi bilishadi. Bejiz yozuvchi suhbatlaridan birida shunday demagan: “Adabiyotni ehtiyoj amri, qismatim deb bilaman. Men shunday hayotning xumori boʻlib qolganman”.

Xolmirzayev, Sh. Kimsasiz hovli: [Matn] : Roman. / Sh. Xolmirzayev. -T.: "O'zbekiston NMIU", 2015. –192 b.

ISBN 978-9943-28-384-8

O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev kitobxonlarga juda ko'p hikoyalari, bir necha qissa va romanlari bilan yaxshi tanish. U o'zbek hikoyachilik san'atini Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko'tara olgan yozuvchilardan biridir. Uning asarlari milliyligi, turfa xarakterlarga boyligi, goho kutilmagan yechim bilan tugashi bilan ajralib turadi. Bu holat, ayniqsa, uning hikoyalari da yaqqol seziladi.

Mazkur «Hikoyalar xazinasi» rukni ostidagi «Kimsasiz hovli» to'plamidagi hikoyalar ham kitobxonni hayotning so'qmoqli yo'llariga boshlab kiradi, o'ylatadi, ranjitadi, quvontiradi, ularga turmush kechinmalarining turli qirralarini ko'rsatib beradi. Taqdim etilayotgan hikoyalarda o'sha davr ruhini saqlab qolish maqsadida shaharlar va ayrim atamalar nomi asliyatga asosan qoldirildi.

Ushbu to'plam barcha yoshdagi kitobsevar o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, ularning oilaviy kutubxonalarini yana bir ajoyib kitob bilan boyitadi, degan umiddamiz.

Холмирзаев, Ш. Танланган асарлар: [Матн] : Қисса. / Ш. Холмирзаев. -Т.: "Шарк", 2016. – 240 б

Инсон манзаралари: изтироб и сурури, меҳри в қаҳри, шодлик ё ғуссали ҳолатларини назик тасвирлаш, сўзда абадиятга муҳрлаш, сеvimли адибимиз Шукур Холмирзана услубига ҳосидир. Ўзбекистон халқ ёзувчиси Шукур Холмирзаев кўн жилдлик "Сайланма" сининг бешинчи жилдидан "Ок, отли", "Буқри тол", "Ўн саккизга кир маган ким бор...", "Йўллар, йўлдошлар", "Тупрок", "От йили" каби қиссалари ўрин олган. Адиб талабалик вақтидаёқ чош этилган "Ок, отли" номли биринчи қиссаси биланок, китобхонларининг эътиборини қозонган ади.

Холмирзаев, Ш. Танланган асарлар: [Матн] : Хикоялар. / Ш. Холмирзаев. -Т.: "Шарк", 2020. – 761 б.

ISBN 978-9943-5994-1-3

XX аср ўзбек адабиётининг Шукур Холмирзаев ижодини тасаввур қилиш қийин. Ўзбек халқ ёзувчиси Шукур Холмирзаев 45 йиллик ижодий фаолиятида яратган хикоялари ўзбек насрининг дурдоналари қаторидан ўрин олган. Машиҳур адиб хикоячилигимизда ўзига ҳос мактаб яратди. Шу билан бирга катта адибни китобхонлар романнавис, қиссанавис, публицист, драматург, адабиётшунос сифатида ҳам яхши билишади. Ушбу "Танланган асарлар" китобида Шукур Холмирзаевнинг кўнгиш мулкимизнинг тўридан ўрин олган энг сара хикоялари жамланди. Адиб таваллудининг 85 йиллиги нишонланаётган ушбу кунларда ўзбек ўқувчиси учун бундан ортиқ совға бўлмаслиги шак-шубҳасиз.

Холмирзаев, Ш. Чўлок турна: [Матн] : Қисса. / Ш. Холмирзаев. -Т.: "Зиё нашр", 2023. – 252 б.

ISBN 9789910997723

Ўзбекистон халқ ёзувчиси. Ҳамза номидаги Ўзбекистон Давлат мукофоти соҳиби Шукур Холмирзаев ўзбек адабиётининг ривожига муносиб ҳисса қўшган адибларимиздан биридир.

Ушбу тўпламда ўрин олган хикоялар ёзувчи ижодининг нақадар серкирралигидан дарак беради. Ўқувчини табиатни, атрофимиздаги ҳар бир жонзотни авайлаш, уларга меҳр беришга ундайди.

Xolmirzayev, Sh. Yo'lovchi. [Matn] : roman / Sh. Xolmirzayev. -T.: "Ziyo nashr" nashriyoti, 2023. –320 b. ISBN 978-9910-9978-1-5

O'zbekiston xalq yozuvchisi. Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti sohibi Shukur Xolmirzayev o'zbek adabiyotining rivojiga munosib hissa qo'shgan adiblarimizdan biridir.

Aslida bu dunyoda hamma yo'lovchi. Bu omonat dunyoda siz-u bizga do'stlarning borligi, yaqinlarimizning mehr-u muhabbati hamisha madad bo'ladi. Turmushidan ajralgan Bekdavlatning hayoti, fikru o'ylari batafsil tasvirlangan ushbu roman sizga yaxshi hamroh bo'lib qolishiga ishonamiz.

Xolmirzayev, Sh. Bir guzar odamlari. [Matn] : hikoyalar / Sh. Xolmirzayev. -T.: "Nurli dunyo" nashriyot uyi, 2024. –256 b.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev o'zbek adabiyotida o'z ovozi, o'z uslubiga ega bo'lgan ijodkor. Ayniqsa, adib hikoya janrida samarali ijod qilgan. Bu hikoyalar qahramonlari siz-u bizga tanish, ko'nglimizga yaqin odamlar. Shu bois ham Shukur Xolmirzayev asarlari vaqt sinovidan o'tgan, adabiyotga daxldor, desak xato qilmaymiz.

Adibning eng yaxshi hikoyalari jamlangan ushbu to'plam yozuvchining asarlarini sog'ingan kitobxonlar uchun munosib sovg'a bo'lishiga ishonamiz.

Xolmirzayev, Sh. Yovvoyi olmozor qaroqchisi. [Matn] : hikoyalar / Sh. Xolmirzayev. -T.: "Nurli dunyo" nashriyot uyi, 2024. –288 b.

To'rt og'ayni maslahatni bir joyga qoyib, tong saharda yo'lga chiqadilar. Maqsadlari tog'dagi yovvoyi olmalarni terib olish. Ular olmozorga borib qarasalarki, olmalar yer bilan bitta bo'lib to'kilib yotibdi. Bu olmalarni kim nobud qildi? Do'stlar hayron bo'ladi. Bu sirning sababini bilish uchun olmozorda tunab qoldilar...

O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev ijodidan saralangan ushbu to'plam sizga ma'qul bo'lishiga ishonamiz.

Xolmirzayev, Sh. Uchinchi hamroh. [Matn] : roman va hikoyalar / Sh. Xolmirzayev. -T.: "Nurli dunyo" nashriyot uyi, 2024. –320 b.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev nomini eshitmagan o'zbek kitobxonlari bo'lmasa kerak.

Yozuvchining roman va qissalaridagi o'ziga xos uslub, tasvirlarning taniqligi o'quvchini o'ziga maftun qiladi. Ayniqsa, adibning hikoyalarida o'zbek xarakteri, xalqimizga xos bag'rikenglik, jo'mardlik betakror obrazlarda tasvirlangan.

O'ylaymizki, yozuvchining eng yaxshi hikoyalaridan saralab tayyorlangan ushbu to'plam sizning ko'ngil mulkingizdan o'rin oladi.